

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI BOLALAR MATBUOTIDA LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLAR

Tillayeva Mohiniso Oybek qizi

Urganch davlat universiteti

2-bosqich tayanch doktoranti

### Annotatsiya

Mazkur maqolada lingvokulturologiyaning tilshunoslik rivojlanishida muhim soha ekanligi va uning xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, ingliz va o‘zbek bolalar matbuotida yangiliklarni tahlil etishning lingvokulturologik va kommunikativ-pragmatik jihatlari muhokama etilgan.

**Kalit so‘zlar:** til, jamiyat, madaniyat, tilshunoslik, lingvokulturologiya, o‘zbek tili, ingliz tili, tarjima

### Abstract

This article highlights the fact that linguocultural studies is an important field in the development of linguistics and its features. Linguistic and communicative-pragmatic aspects of news analysis in English and Uzbek children's press were also discussed.

**Keywords:** language, society, culture, linguistics, linguistics, Uzbek language, English language, translation

### Introduction

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar o‘zbek xalqining madaniy-ma‘rifiy hayotida ulkan ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Islohotlar natijasi o‘laroq milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, xalqimizning ma‘naviyati, madaniyati, axloqiy e‘tiqodlari milliy ruh va yangi mazmun bilan to‘lmoqda. Xususan, O‘zbek tilining rivojlantirishga qaratilgan islohatlar har qachongidan oshib ketdi. So‘nggi yillarda o‘zbek tilini ilmiy tadqiq etishning qator yo‘nalishlari rivojlandi. Bular ichida ayniqsa “tilga izchil yondashish va funksional tahlil” yo‘nalishlari alohida o‘rin tutadi. Har bir millat o‘zida ma‘lum bir milliy an‘analarni aks ettiradi. Ya‘ni har bir xalqning, millatning o‘z milliy an‘analari, urf-odatlari mavjud. Bu ma‘noda har bir inson ana shu milliylikni o‘zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo‘ladi. Ma‘lumki, til ijtimoiy hodisa bo‘lishi bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda



insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida spetsifik yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi.

### Methodology

Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma bo'lib til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Birtomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o'rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o'rnini o'rganadi. Ma'lumki, B. Uorf va E. Sepir Amerika antropolingvistikasida F. Baos ta'limotining davomchilari bo'lishgan. B. Uorf va V. Gumboldtning har bir til, borliqni o'ziga xos ifodalab, til sohibi u orqali olamni ko'rish va mazmunlashtirishga majbur, degan fikrini davom ettirgan. B. Uorf, „Rukovodstvo”ga yozgan kirish so'zida, til va madaniyat o'rtasidagi aloqa o'zaro bog'liq emas, agar tilning holati haqiqatdan ham madaniyatga bog'liq bo'lsa, u holda madaniyatning holati bevosita til bilan aniqlanmaydi, deb yozadi. E. Sepir esa bir necha bor, madaniyatning tilga va tilning madaniyatga ta'siri bir xil emasligi haqidagi F. Baosning fikrlarini inkor qilgan. Shunga qaramay, Sepir ham Gumboldt va Uorf fikrlariga yaqin mulohaza yuritgan. Darhaqiqat, Sepir va Uorfning ta'limotlari Amerika tilshunosligi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. D.Xaymsdan boshlab AQShda etnolingvistika (amerikaliklar uni solsiolingvistika deb ataydi) maktabi shakllandi<sup>1</sup>.

Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A. Maslova esa ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi<sup>2</sup>:

<sup>1</sup> V.Gumboldtning til va shaxs haqidagi fikrlari to'g'risida qarang: Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A. Tanlangan asarlar.2- jildlik.– Toshkent: Akademya, 2012.; Маслова В.В. Лингвокультуралогия в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.,1987.

<sup>2</sup> Шайхисламов, Н. (2020). Зооним компонентли метафораларнинг антропоцентрик тадқиқ этишда гендер жиҳатлар. Образование и наука в XXI веке, 1(6), 304-309.



1) fan shakllanishiga turtki bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.Fon Gumboldt, E.Benvnist, L.Vaysgerber, A.A. Potebnya, E.Sepir) kabi tilshunoslarning ishlari );

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi.

Jumladan, V.N. Teliya bu haqida shunday yozadi: “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog‘i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir”<sup>3</sup>.

## Results

Bugungi kunda informatsiya va zamonaviy aloqa vositalari yordamida matbuotdaxorijiy nashrlardan olingan axborotlar tarjima qilib chop etilmoqda. Ammo tarjimalardagi aslyat uslubiva nashrlar formatini tushunmaslik oqibatida aslyatga zid tarjimalar matbuot yuzini ko‘rmoqda.

Tarjimashunoslikning dolzarb muommalaridan biri xorijiy nashrlarning stilistik xususiyatlari va ularni tarjima qilish muommalarini o‘rganishdan iborat. Mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal sur‘atlarda o‘sib bormoqda. Iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat tadbirkorlar, balki tilshunos tarjimashunoslar uchun ham bir qator vazifalar yuklaydi. O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eksporti va mamlakatimiz bozorlarini bezab turgan import tovarlar reklamalarini yaratish hamda tarjima qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Ammo shuni ta’kidlash joizki, mahsulot reklamalari dastlab mahalliy bozorni zabt etish uchun yaratiladi va ulardagi ma’no o‘zbek iste’molchilariga butunlay tanish bo‘lmasligi mumkin. Bu esa yangiliklar (news), reklama matnlari tarjimasi borasida jiddiyroq tadqiqodlarni olib borish uchun asos bo‘la oladi. Zamonaviy tarjimashunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biri–bolalar matbuoti matnlarining uslubi va qonuniyatlarini ishlab chiqish. Tarjimada qo‘llanadigan stilistik transformatsiyalarni qiyosiy tadqiq qilishdir.

## Discussion

Matn bir tildan umuman boshqa til sistemasiga kiruvchi boshqa bir tilga tarjima qilinayotganda transformatsiyalarsiz tarjimani amalga oshirib bo‘lmaydi. Quyida Amerika jurnalida chiqqan Xeminguey asarlarining tarjimasida ishlatilgan

<sup>3</sup> Шайхисламов, Н. (2020). Фондаментҳои технологияи асосии забон ва назарияи гендерӣ. Мактабгача таълим муассасаларида, умумтаълим мактабларида ва олий таълим муассасаларида чет тиллар ўқитишининг узвийлиги, 734-735



transformatsiyalardan misollar keltirib o‘tamiz. Masalan: *Everything about him was old except his eyes and they were the same colour as the sea and were cheerful and undefeated.*

*Cholda nimaki bor bo‘lsa, bari ham eski, faqat dengiz tusini olgan moviy, mardona odamlarnikiga xos quvnoq ko‘zlari bundan mustasno edi.*

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, sintaktik transformatsiyalar ko‘p hollarda morfologik transformatsiyalar bilan birga qo‘llaniladi. Transformatsiyalarning quyidagi asosiy turlari bo‘yicha ko‘rib chiqamiz:

- 1 • o‘rin almashtirish;
- 2 • almashtirish;
- 3 • qo‘shish;
- 4 • tushirib qoldirish.

*O‘rin almashish* – bu til elementlarining asliyatdagi joylashuvini o‘zgartirish. Bu gaptarkibidagi so‘z va so‘z birikmalari tartibining yoki qo‘shma gapni tashkil etgan gaplar tartibining o‘zgarishidir:

*When the boy came back the old man was asleep in the chair and the sun was down. Bola qaytib kelganda kun botgan, chol esa kursida o‘tirganча uyquga ketgan edi.*

*Almashtirish* – tarjima transformatsiyasining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi.

Buning bir nechta turlari bor:

1) asliyatdan tarjima qilinayotganda gapning sintaktik sxemasi qayta quriladi:

*“You have beautiful hair” I said.*

*“Sochingiz chiroyli ekan”, dedim men*

2) qo‘shma gapni sodda gap bilan almashinishi:

*“Smooth as emery paper and very hard on piano keys”.*

*“Royal klavishlariga jilvir yurgizganday”.*

3) sodda gapni qo‘shma gap bilan almashinishi:

*But none of these scars were fresh. They were as old as erosions in a fishless desert.*

*Ammo bu izlar ichida yangisi yo‘q, hammasi ham uzoq suvsizlikdan qaqrab yotgan biyobon ko‘hna edi.*

## Conclusion

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, lingvokulturologiya muhim yo‘nalish hisoblanib, uni rivojlantirishda quyidagi savollarga aniqlik kiritib olishimiz zarur.



1) til konseptlarini shakllanishida madaniyat qanday ishtirok etadi;  
2) til belgisi ma'nosining qaysi qismiga "madaniy ma'nolar" biriktiriladi;  
3) mazkur fanning asosiy tushunchalarini qanday sistemalashtiriladi, ya'ni fanning asosiy tushunchaviy-terminologik apparatini qanday yaratiladi.  
Bundan tashqari tarjimashunoslikda madaniy o'ziga xosliklarga alohida yondashish kerakligini yani bir bor ta'kidlaymiz. Shuningdek, bolalar matbuotidagi lingvokulturologik jihatlarni belgilab olish dolzarb vazifa deb bilamiz.

### **References**

1. V.Gumboldtning til va shaxs haqidagi fikrlari to'g'risida qarang: Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2- jildlik. – Toshkent: Akademiashr, 2012.;
2. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М., 1987.
3. Шайхисламов, Н. (2020). Зооним компонентли метафораларнинг антропоцентрик тадқиқ этишда гендер жиҳатлар. Образование и наука в XXI веке, 1(6), 304-309.
4. Шайхисламов, Н. (2020). Фондаментҳои технологияи асосии забон ва назарияи гендерӣ. Мактабгача таълим муассасаларида, умумтаълим мактабларида ва олий таълим муассасаларида чет тиллар ўқитишнинг узвийлиги, 734-735

